

Ilmiy to'garak: "Yosh Endokrinolog."

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti "Endokrinologiya, gematologiya va ftiziatriya" kafedrasida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati "Yosh endokrinolog" nomli talabalar ilmiy to'garagi orqali yo'lga qo'yilgan. To'garak faoliyati Samarqand Davlat Tibbiyot Universitetida bo'lib o'tgan xalqaro va respublika miqyosidagi talabalar ilmiy-amaliy konferensiyalari doirasida alohida yig'ilishlar tashkil etish orqali amalga oshirilmoqda. Unda talabalar Endokrinologiya sohasidagi dolzarb muammolar hamda zamonaviy tibbiyot yondashuvlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini tayyorlab, respublika tanlovlariga faol ishtirok etib kelishmoqda. To'garak faoliyati endokrinologiya yo'nalishlariga qiziquvchi barcha talabalarni o'z ichiga oladi. A'zolar o'z yutuqlari bilan rag'batlantirilib, kafedra bilan hamkorlikda faol ilmiy muhitda ishlashmoqda.



To'garak a'zolari soni:

Bugungi kunda "Yosh Endokrinolog" ilmiy to'garagida 40 dan ortiq talaba faol ishtirok etmoqda. Har bir talaba kafedra assistentlariga biriktirilgan bo'lib, ular o'rtasida "ustoz-shogird" an'analari muvaffaqiyatli shakllantirilgan. Kafedra yig'ilishlarida talabalar ilmiy ish mavzularini tanlash, tadqiqot metodikasini o'rganish, birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish va ilmiy hisobot yuritish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallab bormoqdalar. Shuningdek, talabalarning oratorlik mahoratini rivojlantirish maqsadida o'z ilmiy ishlari bo'yicha prezentatsiyalar tashkil etilib, ularning tahlili o'tkazilmoqda. Kafedra mudiri va mas'ul o'qituvchilar tomonidan institut iqtidorli talabalariga biriktirilgan ilmiy mavzular shakllantirilgan bo'lib, talabalar tezislar, maqolalar hamda ilmiy hisobotlar tayyorlab borishmoqda. To'garak a'zolari hozirgacha o'tkazilgan xalqaro va respublika olimpiadalari hamda konferensiyalarda faol ishtirok etib, ijobiy natijalar ko'rsatib kelishmoqda. Bundan tashqari, Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti "Endokrinologiya, gematologiya va ftiziatriya" kafedrasi TIJ a'zolari xalqaro va respublika OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda ilmiy rahbarlari bilan hammualliflikda maqolalar chop etib kelmoqdalar.